IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

TEZ TIBBIY YORDAM STANSIYALARINI ISH FAOLIYATI VA VAZIFALARI

Shoyunusova NargiS Sharifovna

ADTI ijtimoiy gigiena va SSB kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasi tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyati va vazifalari haqida so'z boradi.Ushbu maqola vazifasi aholi o'rtasida tez tibbiy yordam faoliyati to'g'ri targ'ib qilish va ular haqida ma'lumotga ega bo'lishlaridir.

Kalit so'zlar

Tez tibbiy yordam, stansiya, rayzdrav, oblzdrav, dispetcher, Call-markaz, reanimatsion, kardiologik, nevrologik, toksikologiya pediatriya.

Tez tibbiy yordam — inson hayoti hamda sog‘lig‘i uchun xavfli holatlar ro‘y berganda kechasiyu kunduzi shifoxonagacha ko‘rsatiladigan tibbiy yordam turi va tizimi.

Ilk bor Tez tibbiy yordam 1918-yil Toshkent shahrida punkt sifatida tashkil etilib, 1926-yil mustaqil Tez tibbiy yordam stansiyasiga, 1974-yil Tez tibbiy yordam klinik kasalxonasi bilan birlashtirilib bo‘limga aylantirildi. 1983-yil kasalxonadan ajratilib, mustaqil shahar tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyasi deb ataldi. O‘zbekiston Respublikasi Farmoni bilan №PF-2107 10.11.1998yil Shoshilinch Tibbiy Yordam Xizmati ta’sis etilib, 2001-yildan shoshilinch tibbiy yordam va tez tibbiy yordam tushunchalari ikki xil ma’noga ega. Tez tibbiy yordamning vazifasi hodisa yuz bergan joyda, uyda, bemorni kasalxonaga olib keta turib shoshilinch, shu jumladan mutaxassis vrach tomonidan yordam ko‘rsatish, lozim bo‘lsa, bemorlarni kasalxonaga yetkazishni ta’minlashdan iborat. Bundan tashqari, Tez tibbiy yordam xizmati ko‘zi yoriydigan (tug'ayotgan) ayollarni yoki uyida ko‘zi yoriganlarni shifokor talabiga ko‘ra davolash muassasalariga olib boradi. Tez tibbiy yordam xodimlarini chaqirish uchun yagona telefon indeksi (**103**) joriy etilgan. 2016 yilgacha davrda tez tibbiy yordam tibbiyotdagi eng og'ir ahvoldagi og'riqli soha bo’lgan, chunki bu davrda oylik maoshi pastligi, hodimlarga e’tibor va yetarli sharoitni mavjud emasligi sababdan tibbiy hodimlar qo'nimsizligi, sanitar avtomashinalarni eski va nosoz holatdaligi, ularni sonini normaga nisbatan kamligi, yoqilg'i-moylash va avtomobillar ehtiyot qismlarini umuman yo'qligi, dori-vositalar qog'ozda bo'lsada amalda mavjud emasligi, hech qanday davolash standartlari, ish yo'riqnomalarni mavjud emasligi, eskicha aloqa vositalaridan foydalanilganlikdir. 2016 yildan 2022 yilgacha davrda Sh.M.Mirziyoyevning prezident etib saylanganligi, u kishini ko'plab aholini fikridan kelib chiqib, sohadagi eng muammoli bo'lib turgan tez yordam xizmatini isloh qilish kerakligi davri desak bo'ladi, chunki bu davrda tizimni rivojlantirish rejasi, yangiliklarni kirish emas eng avvalo mavjud muammolarni bartaraf etish talab etilardi. Bemor uchun eng avvalo kerak bo'lgan dori-vositalar bilan ta’minlanishi, hodimlarni oylik maoshini bir nea barobar oshirilishi, ularga etarlicha sharoitni yaratib berilishi, sanitar-avtomashinalarni zamonaviylariga almashtirilishi, ularni belgilangan normativ asosida sonini ko'paytirilishi aholimiz tomonidan bir muddat sohaga bo'lgan e’tirozni kamaytirishga olib keldi. Lekin bugunga kelib tizim zamonaviy emasligi yangi tizim yaratish kerakligini ko'rsatib berdi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022 yil 16 iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-283-sonli Qarori orqali Respublika tez tibbiy yordam markazi hamda uning 14 ta hududiy filiallarini tashkil etilishiga zamin

yaratdi. Shu o'rinda Sh.M.Mirziyoyevning tez tibbiy yordam xizmati xaqidagi bir fikrini keltirsam, “Sohada yagona boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilmagan, ya’ni tez tibbiy yordam xizmatining 3 ta «xo'jayini» bor. Jumladan, tibbiyot xodimini «rayzdrav» tayinlaydi, dispetcherlarni ishga qabul qilish va dori-darmon ta’minoti viloyat shoshilinch yordam markazida, transport parki, yoqilg'i ta’minoti va haydovchilar esa « oblzdrav »ga bo'ysunadi” — degan edilar.

Markaz va uning hududiy filiallarida situatsion muvofiqlashtiruvchi bo’limlar tashkil etilib, tuman (shahar) va hududlardagi tez tibbiy yordam tizimi faoliyatini tahlillar asosida boshqaradi va takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi. 2023 yil 1 sentyabrga qadar Toshkent shahri tajribasi asosida Respublikaning boshqa hududlarida elektron avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi to’liq joriy qilinadi. 1 dekabrga qadar Andijon, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari, 2023 yil 1 sentyabrga qadar Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tuman (shahar)laridagi dispetcherlik xizmatlari tugatiladi. Toshkent shahri tajribasi asosida Markazning hududiy filiallarida — yagona Call-markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi. "CALL" markazlarda aholiga zamonaviy tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilib, chaqiruvlarni qabul qilish uchun tunu-kun uzliksiz faoliyat yuritadigan yagona tizim yaratilgan. Bunda chaqiruvlarlar ustuvorligi bo'yicha 5 xil toifaga ya’ni binafsha rang-hayotga taxdid soladigan kasallik yoki jaroxat, qizil rang-shoshilinch qo'ng'iroqlar, sariq rang-tezkor, yashil rang-tezkorligi pastroq va ko'k rang-tezkor bo'lmagan kasalliklarga ajratilgan xolatda bevosita GPS-orqali ko'rilib, bo'sh turgan eng yaqin brigadalar qo'lidagi planshetlarga uzatiladi, tibbiy brigadalar tomonidan chaqiruvni qabul qilgan zaxoti zudlik bilan bemor manzili tomon xarakatlaniladi. Ularga chaqiruvlarni qabul qiluvchi hodimlar bilan birga shifokor xodimlardan iborat maxsus tibbiy maslahat xizmati faoliyati tashkil etildi. Bundan tashqari, tez tibbiy yordamning tuman (shahar) yoki hudud chegarasidan qat’i nazar — bemorgacha masofaning yaqinligiga qarab tibbiy brigada yo'naltiriladi. Tez tibbiy yordam avtotransport vositalariga radioaloqa vositalari va GPS-trekerlar o'rnatildi, tez tibbiy yordam brigadalarini planshetlar bilan ta’minlanmoqda. Hozirgi kunda Respublika tez tibbiy yordam markazi negizida “sanitar aviatsiya” xizmati uchun zamonaviy vertolyotlar harid qilinishi rejalashtirilmoqda.

1983-y. kasalxonadan ajratilib, mustaqil shahar tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyasi deb ataldi. Tez tibbiy yordamning vazifasi hodisa yuz bergan joyda, uyda, bemorni kasalxonaga olib keta turib shoshilinch, shu jumladan, mutaxassis vrach tomonidan yordam ko‘rsatish, lozim bo‘lsa, bemorlarni kasalxonaga yetkazishni ta’minlashdan iborat. Bundan tashqari, T. t. yo. xizmati ko‘zi yoriydgan ayollarni yoki uyida ko‘zi yoriganlarni vrach talabiga ko‘ra davolash muassasalariga olib boradi. TTY xodimlarini chaqirish uchun yagona telefon indeksi (OZ) joriy etilgan.TTY stansiyalari xodimlari mehnatga qobilyatsizlik varaqalari, sud-tibbiy eksperti xulosalari, shuningdek, bemorlarga yo ularning qarindoshlariga yozma ma’lumotnoma berish huquqiga ega emas. Qishloq joylarida kunning istagan paytida T. t. yo. ko‘rsatish vrachlar va o‘rta tibbiyot xodimlari zimmasiga yuklangan. Olis va borish qiyin bo‘lgan joylarga sanitariya aviatsiyasi vositalari bilan shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatiladi.Tez tibbiy yordam mashinalari radiolashtirilgan bo‘lib, ikki tomonlama telefon aloqasi bilan ta’minlangan, nafas va narkoz berish apparatlari, kislorod ingapyatorlar, elektrokardiograf va boshqa(lar) zaruriy asboblar bilan jihozlangan. Yirik shaharlar, jumladan, Toshkentda ham ixtisoslashtirilgan maxsus reanimatsion, kardiologik, nevrologik, toksikologiya pediatriya, jadal davolash brigadalari va boshqa(lar) tashkil etilgan. Bu uyda va yo‘lda keta turib ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishga imkon beradi.

Prezidentning 16.03.2017 yildagi PQ–2838-son Qarori bilan Tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ma'qullandi.

U quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan:

1) fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, tez tibbiy yordamning sifatini oshirish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish (qator Hukumat qarorlarini ishlab chiqish va tasdiqlash);
2) tez tibbiy yordam xizmatining tezkorligini, sifatini va undan foydalanish darajasini oshirish (tez tibbiy yordam ko'rsatishning yagona standartlarini joriy etish);
3) tez tibbiy yordam xizmatining kadrlar salohiyatini mustahkamlash hamda mahalliy va ilg'or xorijiy ilmiy ishlanmalar natijalarini milliy amaliyotga joriy etish, shoshilinch tibbiyot tizimini tashkil etish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish (yangilangan o'quv dasturlarini tasdiqlash, dispetcherlarni o'qitish, malaka oshirish kurslarining yangi yo'nalishlarini joriy etish va h.k.);
4) tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, uning amaliyotiga zamonaviy ilmiy-texnik vositalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish (240 ta ob'yektni mukammal ta'mirlash, 369 ta ob'yektni joriy ta'mirlash; tez yordam xizmatining 1200 ta maxsus avtotransportini sotib olish, 420 tasini mukammal ta'mirlash, 465 tasini to'liq jihozlash).

Bemor uchun eng avvalo kerak bo'lgan dori-vositalar bilan ta'minlanishi, hodimlarni oylik maoshini bir nea barobar oshirilishi, ularga etarlicha sharoitni yaratib berilishi, sanitar-avtomashinalarni zamonaviylariga almashtirilishi, ularni belgilangan normativ asosida sonini ko'paytirilishi aholimiz tomonidan bir muddat sohaga bo'lgan e'tirozni kamaytirishga olib keldi. Lekin bugunga kelib tizim zamonaviy emasligi yangi tizim yaratish kerakligini ko'rsatib berdi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022 yil 16 iyundagi "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-283-sonli Qarori orqali Respublika tez tibbiy yordam markazi hamda uning 14 ta hududiy filiallarini tashkil etilishiga zamin yaratdi. Shu o'rinda Sh.M.Mirziyoyevning tez tibbiy yordam xizmati xaqidagi bir fikrini keltirsam, "Sohada yagona boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilmagan, ya'ni tez tibbiy yordam xizmatining 3 ta «xo'jayini» bor. Jumladan, tibbiyot xodimini «rayzdrav» tayinlaydi, dispetcherlarni ishga qabul qilish va dori-darmon ta'minoti viloyat shoshilinch yordam markazida, transport parki, yoqilg'i ta'minoti va haydovchilar esa «oblzdrav»ga bo'ysunadi" — degan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.R. U. Muhitdinov, N.S. Tojiboyev. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish . 2003 y.

2.O. Xasanov. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi. 2006 y.

3.Y. Allayorov. Y. Tojiboyev. Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari. 2007 y.

4.D. M Sobirov. Shoshilinch holatlar. 2007 y.

5.Е. И. Чазов. Неотложные состояния и экстренная медицинская помощь. 2005 г.